



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 12-avgust, seshanba,
91 (24.117)-son

O'zbek xalq
maqoli

Savobning
eshigi
ko'p

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

BOG'IBALAND ANJIRI ni



Kun nafasi

yemabsiz...



Samarqand shahridagi Bog'ibaland mahallasida "Anjir sayli" bo'lib o'tdi. Bu sayil avvaligilariga o'xshamadi. Tadbir qaysi jihatlari bilan o'zgacha bo'ldi?

- Birinchidan, sayil ushbu mevani yetishtirishni ommalashtirish, yo'qolib ketayotgan noyob turdagi anjir ko'chatlarini ko'paytirishga xizmat qilmoqda, - deydi viloyat hokimining o'rinbosari Rustam Qobilov. - Masalan, bugungi tadbirda bog'bonlarimiz tomonidan yangicha, in-vitro usulida yetishtirilgan 6 oylik ko'chatlar bepul tarqatilyapti. Bir paytlar

bunday ko'chatlarni faqat erta bahor yoki kech kuzda ekib parvarishlashimiz mumkin edi. In-vitro usulida yetishtirilgan ko'chatlarni ayni paytda, yozning jazirama kunlarida tomorqamizga o'tqazsak ham ko'karib ketaverarkan. Yana bir ahamiyatli jihati sayil bugungi kunda turizm maskaniga aylangan Bog'ibalanddagi anjirzorda o'tkazilyapti. Anjir saylida mahalliy sayyohlardan ko'ra xorijlik mehmonlarni ko'proq uchratdik. Ular orasida Turkiya, Xitoy hamda Fransiya davlatlaridan kelgan sayyohlar ko'pchilikni tashkil etardi. - O'zbekiston, xususan, Samarqandga sayohatimiz "Anjir sayli"ga to'g'ri kelganligi bizni juda xursand qildi, - deydi fransiyalik sayyoh Vanessa

Lhuillier. - Bu yerda bizni kutib olgan o'zbeklarning mehmondo'stligiga qoyil qoldim. Ular bilan dildan suhbatlashdik, anjir bog'lari tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ayniqsa, mevalarni daraxtdan uzib yeb ko'rishning gashti boshqacha, juda mazali. Biz tomonida ham anjir yetishtiriladi. Faqat uning rangi qoramtir. Bu yerda turli rangli va ta'mli anjirlar bor ekan. Sayilda qatnashganlar anjir va undan tayyorlangan sharbat, murabbo, grekcha gazak va boshqa taomlardan tatib ko'rdilar. Mutaxassislar tomonidan mahorat darslari tashkil etildi.

To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).



QURUVCHILAR TAQDIRLANDI

Avgust oyining ikkinchi yakshanbasi yurtimizda Quruvchilar kuni sifatida nishonlanadi. Shu munosabat bilan Samarqand shahrida o'tkazilgan tantanali tadbirda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev soha xodimlarini kasb bayrami bilan tabriklab, qurilish sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biriga aylanganini ta'kidladi.

- Joriy yilning birinchi yarmida qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,6 trillion so'mga ortib, salkam 8,7 trillion so'mga yetgani buning yaqqol dalilidir, - dedi A. Boboyev. - Birgina joriy yilda Davlat dasturlari doirasida 1,8 trillion so'mdan ortiq mablag' hisobiga 186 ta ijtimoiy soha obyekti, 400 kilometrdan ziyod ichimlik va oqova suv tarmoqlari, 50 dona suv inshootlari, 2 ming 339 kilometr avtomobil yo'llari va boshqa obyektlarda qurilish-ta'mirlash hamda rekonstruksiya qilish ishlari davom etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy uy-joylar barpo etish bo'yicha yuqori natijalarga erishilayotganini ta'kidlash lozim. Birgina 2024-yilda viloyatimizda 11 ming 500 xonadonli ko'p qavatli uylar barpo etildi. Joriy yilda esa hududlarda 12500 xonadonli 179 ta uy-joy qurilmoqda.

Tadbirda bir guruh quruvchilarga viloyat hokimining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari topshirildi.

B.MUSTANOV.

"Yangi O'zbekiston"

universitetining baholash tizimi ommalashadi

Joriy yilning 8-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda bir qator dolzarb masalalar o'rtaga tashlandi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari ishga joylashishni hisob-kitob qilishdagi kamchiliklarni tanqid qildi. Bu yilgi 231 ming oliyogoh bitiruvchisidan 125 mingi ish topdi, deb hisobot berilayotgani bilan ishli bo'lganlarning 42 mingi o'zini o'zi band qilgani aniqlangan.

Har bir talabani oliyogohda o'qitib, mutaxassis qilib tayyorlash uchun davlat yiliga 25-30 million so'm sarflamoqda. Lekin to'rt yil oliyogohda o'qib, diplom olgan yoshlarning yarmidan ko'pi kam malaka talab etadigan ishlarda band. Shuning uchun bundan buyon bitiruvchilarni ishga joylashda o'zini o'zi band qilganlik inobatiga olinmasligi belgilandi.

- Endilikda "Yangi O'zbekiston" universitetining baholash tizimi oliyogohlarda ham yo'lga qo'yiladi, - dedi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. - Moliyalashtirish oliyogohlari to'plagan bal-

lariga qarab amalga oshiriladi. Bunda oliyogohlarga bitiruvchilar bandligiga qarab 40 ball, ilmiy tadqiqotlar uchun tarmoq buyurtmasi va mahsulotini sotishiga 30 ball, ilmiy salohiyati, tan olingan xalqaro jurnallarda maqolalari uchun 20 ball, tadqiqotlar uchun jalb qilgan mahalliy va xorijiy grant uchun 10 balgacha beriladi. Masalan, Qarshi texnika universiteti jami ballarning 85 foizini to'plasa, bu yilgi byudjetdan berilayotgan 78 milliard so'mga qo'shimcha 20 foizlik bonus beriladi. Agar 56 foizdan kam to'plasa, keyingi o'quv yiliga moliyalashtirish qisqaradi. Albatta, mutasaddilarga reyting mezonlarini ishlab chiqishda oliyoghlarning har tomonlama imkoniyatini hisobga olish topshirildi. Shuningdek, videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz yana bir tashabbusni ilgari surdi. Endilikda abituriyentlar 5 ta



oliyoghdan birortasiga kirolmagan bo'lsa, lekin to'plagan bali boshqa oliyoghdagi to'lmagan yo'nalishga to'g'ri kelsa, shu oliyogoh rektori ularni kontrakt asosida qabul qilishi mumkin bo'ladi. Bu davlat va xususiy oliyoghlari o'rtasida raqobatning rivojlanishiga xizmat qilishi ta'kidlandi. Bundan tashqari, rektorlarga qo'shimcha kontrakt summasini tabaqalashgan holda belgilash vakolati beriladigan bo'ladi. Davlatimiz rahbari ilgari surgan muammolar asosli bo'lib, endi oliy ta'lim muassasalarida mavjud kamchiliklar o'z yechimini topadi. **Shavkat HASANOV, Samarqand agrotehnologiyalar va tadqiqotlar instituti rektori, professor.**

Яқингача ҳовли уйлар жойлашган маҳаллаларда ободонлаштириш, кўкаламзорлаштириш ва коммунал хизматлар билан боғлиқ муаммоларга ҳашар ёки ёлланма ишчилар орқали ечим изланарди. Бу узок муддатли, тизимли ва самарали ечим эмаслиги маълум эди.

Шу боис ўтган йил маҳаллаларда "Маҳалла сервис компаниялари" фаолияти йўлга қўйилди. Бу компаниялар маҳаллаларнинг санитария ҳолатини яхшилаш, кўчалар ва ариқларни тозалаш, кўчат экиш ва уларни парваришlash, шунингдек, коммунал тармоқларни таъмирлаш, чиқиндиларни саралаш ва ташиш хизматларини шартнома асосида амалга оширишни ўз зиммасига олади.

Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси вилоят бошқармаси масъули Шоҳрух Аҳровнинг маълум қилишича, вилоятдаги 16 туман ва шаҳарда шундай сервис компаниялар ташкил этилган ва улар таъриба сифатида аҳолига 24 турдаги хизмат кўрсатишни бошлаган.

Хўш, бу тизим қандай самара берапти? Жомбой туманидаги **Гулистон маҳалласи** мисолида саволга жавоб изладик. - Маҳалламиз туман марказида жойлашган бўлиб, 3350 нафардан зиёд аҳоли яшайди, - дейди маҳалла раиси **Жамшид Мирбобоев**. - 726 хонадоннинг 578 таси ҳовли уйлардан иборат. Кўп қаватли уйларга хизмат кўрсатувчи бошқарув сервис компаниялари самарали фаолият олиб бормоқда. Аммо ҳовли-

Маҳалла сервис компаниялари

нега ишламаяпти?

Ана, холос

ларда жойлашган хонадонларда аҳоли коммунал ва ободонлаштириш соҳасида турли қийинчиликларга дуч келмоқда. Маҳалламизда ўтган йил августда **"Гулистон маҳалла сервис компанияси"** ташкил этилди. Беш нафар ходим ишга қабул қилиниб, зарур техника ва жиҳозлар билан таъминланди. Бу компания маҳаллада иш бошласа, аҳоли хонадонларида сервис хизматлари кўрсатиш сифати ошади, коммунал соҳадаги муаммолар ҳам ҳал этилади, деб умид қилгандик. Аммо эътибор бўлмаса, ташаббус ҳам тўхтайдди. Ходимларга маош тўланмаслиги натижа-сида ташкилот фаолияти тўрт ойга бормай тўхтади ва ўтган йилнинг декабрь ойидан бери фаолият кўрсатмапти.

"**Гулистон маҳалла сервис компанияси**" раҳбари **Шоқирбой Дўстовнинг** маълум қилишича, Президентимизнинг 2024 йил 25 июндаги қарорига асосан, маҳаллаларга жамоат ишлари жамғармаси ҳисобидан ҳар ой 20 миллион сўмдан маблағ ажратилиши керак эди. Шунингдек, сервис компаниялар аҳолига 20 дан ортиқ пуллик хизматлар кўрсатиши белгиланган. Афсуски, ташкилот фақат август ойидагина ушбу маблағни олган ва ходимларга маош тўланмаган.

- Компанияда икки эркак, уч нафар аёл ишлардик, - дейди **Бхтиёр Насимов**. - Аввалига бир ой маош олдик, аҳолига



шартнома асосида пуллик хизмат ҳам кўрсатдик. Лекин уч ойлик маош тўланмаганидан сўнг ҳаммамиз ишдан кетдик. Вилоятдаги 15 туман ва шаҳарда ташкил этилган бошқа маҳалла сервис компанияларида аҳвол қандай экан? Ушбу компания маҳаллаларда аҳолининг турмуш тарзини энгиллаштириш, коммунал соҳа ва ободонлаштириш ишларини тизимлаштириш учун муҳим ташаббус эди-ку. Лойиҳага амалий жиҳатдан **маблағ ажратилмаса, ходимларга кафолатли маош тўланмаса, аҳолига кўрсатиладиган хизматлар сифатли шаффоф ташкил этилмаса**, ташаббус қорғозда қолиб кетаверади.

Фазлиддин РЎЗИБОВЕВ,
"Зарафшон" муҳбири.

Бепул дори-дармон, кўчаётган лаборатория, ишсиз қолган тиббиёт ходимлари

бирламчи тиббиётдаги ўзгаришлар ҳақида тизим масъули билан суҳбат

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Республикада соғлиқни сақлаш тизимини ва аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш тамойилларини такомиллаштириш орқали соҳани ислоҳ қилишни изчил давом эттириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони асосида бирламчи тиббиёт тизимида қатор янгиликлар амалга оширила бошланди. Шу кунларда мазкур ўзгаришлар намунали ҳудудлар сифатида танлаб олинган Булунғур, Иштихон туманлари ҳамда Самарқанд шаҳридаги оилавий поликлиникалар фаолиятида кўзга ташлана бошлади. Бу ҳақда вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси бошлиғи ўринбосари Жамшид Жиянов билан суҳбатлашдик.

– Биринчи навбатда аҳолига танлаш имконияти берилмоқда, – дейди Ж.Жиянов. – Яъни, илгари фуқаро ўзи яшайдиган ҳудуд поликлиникасида рўйхатдан ўтиш ва ўша ерда даволаниши мумкин эди. Эндиликда поликлиника билан аҳоли ўртасида битим тузилади. Унда маълум шартлар ва иккала томоннинг ҳам мажбуриятлари бўлади. Аҳолининг асосий мажбуриятларидан бири сифатида ўз вақтида тиббий кўриқдан ўтиш белгиланган. Фуқаро ўзига маъқул келмаган тиббиёт муассасаси билан битимни бекор қилиб, бошқа поликлиникага мурожаат қилиши мумкин. Пилот ҳудудларнинг барчасида марказий поликлиника биноси ўзгариши ва янги бинога ўтказилади. Оилавий поликлиникалар уч типга ажралади: биринчиси 3 мингдан 12 минггача бўлган аҳолига хизмат кўрсатади. Кейингиси 12 мингдан 54 минггача бўлган аҳолига хизмат кўрсатади ва шу поликлиникаларнинг жойлардаги филиаллари ташкил этилади. Маҳалла тиббиёт пунктлари ҳам эндиликда филиал мақомига эга бўлади.



турдаги таҳлиллар амалга оширилади. Эндиликда белгиланган шаҳар ва туманларда марказий поликлиника ташкил этилади ва барча таҳлиллар фақат ўша ерда амалга оширилади.

– Бу марказий поликлиникалардан олисда яшайдиган аҳоли учун ноқулай бўлмайди?

– Йўқ, чунки ҳар бир поликлиникада таҳлиллар учун йиғиш пунктлари ташкил этилади. Кейин махсус идишларда марказий поликлиникаларга келтирилади. Таҳлил натижалари электрон базага киритилади. Биласиз, кўп ташхис кўйиш учун бемор бирон бир ҳудуддан келаётган бўлса, аввал ўз поликлиникасида, туманда, кейин вилоятда ҳам бир хил таҳлилларни қайта-қайта амалга оширишига тўғри келарди. Эндиликда бундай сарсонгарчиликларнинг олди олинди ва ўша электрон базага киритилган жавоблар барча шифохоналар учун етарли бўлади.

Бугун аксарият оилавий поликлиникалардаги лаборатория жиҳозлари эскирди, улардаги аниқлик фоизи ҳам тобора пасайган. Худудлардаги марказий поликлиникаларга келтирилган янги лаборатория жиҳозлари юз фоиз аниқликда ишлайдиган энг замонавий аппаратлардир. Аҳоли учун 12 турдаги бепул кафолатланган пакет лаборатория таҳлиллари ўтказилади.

– Поликлиникаларда аҳолига қандай турдаги дори-дармонлар бепул берилади? Бу бўйича ўзгаришлар борми?

– Эндиликда поликлиникаларда аҳолига дори-дармон берилиши реимбурсация дастури бўйича амалга оширилади. Яъни юрак-қон томир, эндокрин, нафас йўллари хасталиклари, ошқозон-ичак тизими хасталиклари учун 29 турдаги дори-дармонлар бепул ажратилади. Ҳўп, реимбурсация дастури қандай амалга оширилади? Бу дастурга кўра ҳар бир беморга поликлиникада электрон рецепт асосида код берилади. Бемор ушбу код билан исталган поликлиникада ўша дориларни бепул олиши мумкин.

– Бирламчи тиббиётда бундай ўзгаришлар тўғрисида бир қанча тиббиёт ходимлари ишсиз қоляпти, деган гаплар ҳам қулқоқча чалинапти...

– Иштихон, Булунғур туманларида бирламчи тиббиёт самарадорлигини ошириш мақсадида амалга оширилган ишлардан сўнг тиббиёт ходимларининг иши масаласида муаммо бўлгани йўқ. Самарқанд шаҳрида эса бу масала бироз муаммоли бўлди. Айни пайтда шифокор ва ҳамшираларни иш билан таъминлаш масаласи босқичма-босқич ҳал этилмоқда.

– Бу каби янгиликлар бошқа ҳудудларга ҳам жорий этиладими?

– Албатта, 2026 йилнинг 1 январидан бошлаб, барча ҳудудларда шу тизим йўлга қўйилади.

Гулрух МҶМИНОВА суҳбатлашди.



Quyosh panelidan kim qancha foyda ko'ryapti?

BULUNG'UR tumanida 2023-yildan beri 800 dan ziyod obyektga 7432 kVt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatildi. Jumladan, 570 ta aholi xonadonida shunday qurilmalardan foydalanilmoqda.

– Joriy yilda tumanimizda 4710 kVt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatish rejalashtirilgan edi, – deydi tuman elektr tarmoqlari korxonasi quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha mutaxassis J. Yoqubov. – Quyosh paneliga ham e'tibor kerak, vaqtida tozalab, yuvib turish kerak. Masalan, bir fermer o'rnatgan quyosh paneli foyda bermayotganligidan shikoyat qilib, yuqori tashkilotlarga murojaat qilgan. Joyiga borib o'rgananimizda panelning usti chang bosib ketganligini ko'rdik. 15 kVt quyosh ega qurilma bor-yo'g'i 2 kVt elektr energiyasi ajratib beryapti. Quyosh paneli changdan tozalangandan keyin muammoga yechim topildi. Yana bir kam ta'minlangan oila uchun homiylik tomonidan 1 kVt quvvatli quyosh paneli o'rnatilgan. Xonadon sohibasi me'yorida ortiq energiya talab qiladigan elektr plitasini ishlatgan. Natijada qurilma ishdan chiqqan.

Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida tuman elektr tarmoqlari korxonasi va boshqa mas'ul tashkilotlar vakillari tomonidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilyapti. – 2002-2005-yillarda tuman hokimligida ishlaganman, – deydi Ikrom Mamatqulov. – Elektr energiyasidagi uzilishlar bizni qiynardi. Shamchiroqlardan foydalanardik. Qishloqdagi sharoitni gapiray, hatto tuman hokimligi binosida chiroq o'chib qolardi. Mana, bugun mamlakatimizga quyosh panellari kirib kelib, bu muammolarga barham berilyapti. Ularni o'rnatish yildan yilga osonlashyapti, arzonlashyapti. Puli yetmaganlar uchun kredit asosida o'rnatish imkoniyatlari bor.

– Ularining noroziligiga sabab qurilmadan foydalanish bo'yicha to'liq tushunchaga ega emasligi, – deydi mutaxassis J. Yoqubov. – Quyosh paneliga ham e'tibor kerak, vaqtida tozalab, yuvib turish kerak. Masalan, bir fermer o'rnatgan quyosh paneli foyda bermayotganligidan shikoyat qilib, yuqori tashkilotlarga murojaat qilgan. Joyiga borib o'rgananimizda panelning usti chang bosib ketganligini ko'rdik. 15 kVt quyosh ega qurilma bor-yo'g'i 2 kVt elektr energiyasi ajratib beryapti. Quyosh paneli changdan tozalangandan keyin muammoga yechim topildi. Yana bir kam ta'minlangan oila uchun homiylik tomonidan 1 kVt quvvatli quyosh paneli o'rnatilgan. Xonadon sohibasi me'yorida ortiq energiya talab qiladigan elektr plitasini ishlatgan. Natijada qurilma ishdan chiqqan.

Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida tuman elektr tarmoqlari korxonasi va boshqa mas'ul tashkilotlar vakillari tomonidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilyapti. – 2002-2005-yillarda tuman hokimligida ishlaganman, – deydi Ikrom Mamatqulov. – Elektr energiyasidagi uzilishlar bizni qiynardi. Shamchiroqlardan foydalanardik. Qishloqdagi sharoitni gapiray, hatto tuman hokimligi binosida chiroq o'chib qolardi. Mana, bugun mamlakatimizga quyosh panellari kirib kelib, bu muammolarga barham berilyapti. Ularni o'rnatish yildan yilga osonlashyapti, arzonlashyapti. Puli yetmaganlar uchun kredit asosida o'rnatish imkoniyatlari bor.

Bugun elektr energiyasiga bo'lgan talab kun sayin oshmoqda. Shu sababli korxonalar va tashkilotlar, hatto maktab va bog'chalarda ham quyosh panellari o'rnatilmoqda. Bunga TOYLOQ tumanidagi umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham guvoh bo'ldik.

Tumanda 61 ta umumta'lim maktabi va 45 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shu kunga qadar 29 ta umumta'lim maktabiga 259 kVt, 18 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga 93 kVt hamda tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi binosiga 10 kVt quvvatli quyosh panellari o'rnatilgan, – deydi Toyloq tumani maktabgacha va maktab ta'lim bo'limining maxsus ta'mirlash eksploatatsiya bo'limi bosh mutaxassis Farhod Xodjayev. – Ushbu quyosh panellari hisobidan bugungi kunga qadar 166 ming 328 kVt elektr energiyasi tuman elektr tarmoqlari korxonasiga yetkazib berildi.

To'g'ri, hali ushbu elektr energiyasi maktab va bog'chalarning to'liq iste'moliga yetmaydi. Sababi, 2024-yilda maktablarning elektr energiyasi iste'moli 842 ming 782 kVt bo'lgan bo'lsa, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining iste'moli 731 ming 712 kVtni tashkil qilgan. Maktablarda yozgi ta'tilda, ya'ni joriy yilning iyul oyida elektr energiyasi iste'moli 35620 kVt bo'lgan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining iste'moli 45057 kVtga yetgan. Biroq qishki mavsumda elektr energiyasi iste'moli ancha yuqori bo'ladi.

2025-yilning iyul oyida maktablardagi quyosh panellaridan 29430 kVt, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan 5027 kVt elektr energiyasi tuman elektr tarmoqlari korxonasiga sotilgan. Tumandagi barcha maktab va bog'chalarga quyosh panellari o'rnatilsa, kelajakda ancha elektr energiyasi tejashiga erishiladi. Hatto maktab va bog'chalar iste'molidan ortgan elektr energiyasini davlatga sotishi mumkin.

To'liqin SIDDIQOV,
Xurshida ERNAZAROVA,
Baxtiyor MUSTANOV.

Sud zalidagi huquqlaringizni bilasizmi?

Davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniyligni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'z navbatida mustaqil va xolis sudni talab qilish har bir insonning huquqi hisoblanadi. Bu huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham belgilab qo'yilgan. Biroq sud jarayonida fuqarolarning o'z huquqlari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emasligi, huquqiy savodsizlik va qonun normalarini noto'g'ri tushunish kabi muammolar mavjud. Ko'pchilik fuqarolar sud zalidagi o'z huquqlari, majburiyatlari va imkoniyatlari haqida aniq tasavvurga ega emas. Bu esa o'z navbatida adolat izlash jarayonini murakkablashtiradi va ba'zida fuqarolar huquqlarining buzilishiga olib keladi.

Qaysi huquqlardan bexabarmiz? Amaliy tajriba va tadqiqotlarga asoslanib aytish mumkin, odamlar sud zalida eng ko'p *sukut saqlash* yoxud *aybsizlik prezumtsiyasi, bepul yuridik xizmatdan foydalanish* kabi huquqlaridan foydalanmaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksining aybsizlik prezumtsiyasi, deb tanilgan 23-moddasiga binoan sud zalida insonlar sukut saqlashlari mumkin. Ya'ni, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas. Ular istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tergovchining yoki surushiruvchining savollariга javob berishga majbur emas. Ularni tazyiq asosida gapirishga majbur qilish mumkin emas hamda insonlarning sukut saqlash huquqini buzgan holda olingan dalillar odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bosh qomusimizga kiritilgan o'zgartirishlardan biri bo'lgan bepul yuridik yordam olish huquqi insonlar uchun keng imkoniyatlar eishigini ochdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 19-moddasida har bir insonning irqi, jinsi, millati hamda sudlanganligidan qat'i nazar, yuridik yordam olish huquqi kafolatlab qo'yildi.

"Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risi"dagi Qonunga binoan kam ta'minlan-



gan, ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslarga, huquqlari buzilgan hamda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliigi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxslar, **Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jinoyat ishi bo'yicha advokat ishtirok etishi shart bo'lgan taqdirda** gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi shaxslarga nisbatan davlat tomonidan yuridik yordam olishlari kafolatlanishi belgilab qo'yilgan.

Sud zalida yana bir muhim, biroq ko'p hollarda nazardan chetda qoladigan inson huquqlaridan biri bu – **tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi hisoblanadi.** Sudda tilni tushunmaydigan shaxsga tarjimon atirilishi bu sud adolatining ajralmas qismidir. Bu nafaqat texnik yordam, balki inson sha'ni va huquqini himoya qilish kafolatidir.

"Sudlar to'g'risi"dagi Qonunning 13-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasida sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yoxud qonunga muvofiq boshqa tilda olib boriladi. Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sud muhokamasi olib borilayotgan tilni yetarli darajada tushunmasa yoki gaplasha olmasa, **ishtirok etuvchilarning tarjimon xizmatidan bepul foydalanish huquqi** mavjud. Bu huquq ayniqsa, til to'sig'i sababli o'z fikrini aniq ifoda eta olmaydigan shaxslar uchun muhim ahamiyatga ega. Afsuski, sud ishtirokchilari orasida ushbu huquqdan bexabar bo'lganlar ham anchagina. Oqibatda ularning pozitsiyasi noto'g'ri talqin qilinadi yoki tushunilmay qoladi, ushbu holat bo'lsa, odil sudlovni ta'minlashda to'siq bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, sud zalida inson huquqlarining to'liq kafolatlanishi, fuqarolarning o'z huquqlari, majburiyatlari va imkoniyatlari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishiga chambarchas bog'liq. Shu bois fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirish, sud tizimidagi ochiqlik va adolatni mustahkamlash davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir.

Gulsanam G'APUROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
xususiy huquq fakulteti talabasi.

Ko'pchiligimiz yangi uy olishni xohlaymiz. Buning uchun pul tejaymiz, to'playmiz va qurilish korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan shartnomani imzolaymiz. Afsuski, ba'zi hollarda xaridorga o'sha shartnoma shartlari to'g'ri kelmaydi yoki muddat buziladi. Ikki tomondan biri kelishuvni buzib, shartnomani bekor qilishni istaydi.

Fuqaroning 43 million so'm mablag'i qaytarildi

Raqobat qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasiga ana shunday murojaatlardan biri fuqaro M.O'rinov tomonidan yo'llangan.

Murojaatda keltirilishicha, fuqaro uy-joy sotib olish uchun "Elegant new diamond construction" MChJ bilan shartnoma imzolab, boshlang'ich badal va tasdiqlangan to'lovga asosan pul mablag'larini to'lagan. Bugungi kundagi holat shartnoma shartlariga muvofiq emasligi oqibatida fuqaro shartnomani bekor qilish to'g'risida "Elegant new diamond construction" MChJga murojaat qilgan. Ammo murojaat e'tiborsiz qoldirilganligi sababli mablag' MChJ bilan tuzilgan shartnomani bekor qilib, o'tkazgan mablag'ini qaytarib olish yuzasidan amaliy yordam so'ragan.

O'rganish ishlari natijasida hududiy boshqarma mutaxassislari tomonidan mavjud holat to'liq tahlil qilinib, fuqaroning ko'p qavatli uy xarid qilish uchun tuzilgan shartnomasi bekor qilindi hamda "Elegant new diamond construction" MChJga to'langan jami 43 million so'm pul mablag'i fuqaroga qaytarilishi ta'minlandi.

M.HAMROYEV,
boshqarma boshlig'i
o'rinbosari.

Rivojlangan mamlakatlar qatorida bo'lamiz

Bolaligimdan kitob o'qishga, ilm olishga qiziqishim kuchli. Maktabda ham aniq, ham tabiiy fanlarni chuqur o'zlashtirishga, til o'rganishga intilganman. Turli tanlov va fan olimpiadalarida qatnashib, viloyat va respublika bosqichlarida faxrli o'rnlarni qo'lga kiritdim.



Matematikaga bo'lgan qiziqish meni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga yetakladi. 4 yil davomida ustozlarim ko'magida ko'plab ilmiy maqolalar yozib, xalqaro konferensiyalarda qatnashdim. Soliq va soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va audit, moliya va moliyaviy texnologiyalar kabi mavzularda yozilgan maqolalarim respublika va xalqaro jurnallarda chop etildi. Qolaversa, o'quv qo'llanmalar, kitoblar nashr ettirdim. Shuningdek, turli davlatlarda tashkil etilgan xalqaro fan olimpiadalarida qatnashdim. Jumladan, 2023-yilda Rossiya o'tkazilgan Yevrosiyo xalqaro iqtisod olimpiadasi-da 100 dan ortiq mamlakat vakillari orasida birinchi o'rinni qo'lga kiritdim.

Magistraturani Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida davom ettirishni maqsad qilgandim va bunga ham erishdim.

Ko'nglimda "Mard o'g'lon" mukofotiga sazovor bo'lish orzusi ham bor edi. Bu niyat mukofot ta'sis etilgan kundayoq paydo bo'lgandi. O'z ustimda ishlab, xalqaro tadbirlarda qatnashib, serqirra ijodkor bo'lishga harakat qildim. Bugun esa orzuga erishdim. Mukofotni davlatimiz rahbarining qo'lidan qabul qilib olganim meni faxrlantirdi.

Prezidentimiz menga mukofotni topshirish jarayonida "Kelajakda kim bo'lmoqchisan?", deb so'radi. Yetuk iqtisodchi bo'lishimni ayt-dim. U kishi mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar bundan keyin ham kengayib borishini, bundan oqilona foydalanishimiz kerakligini aytib, maqsadimga erishishim uchun ishonch bildirdilar. Bu albatta, menga ilhom bag'ishladi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivoji yo'lida, ayniqsa, uning xalqaro nufuzini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlarga o'z hissamni qo'shishga va'da berdim.

Ahamiyatli, tadbirdan so'ng Yangi O'zbekiston bog'iga borib, "Vaqt kap-sulasi"ni o'rnatdik. Biz shu paytgacha bo'lgan jarayonlar, yaratilgan imkoniyatlar va erishgan yutuqlarimizni tarixga muhrladik. 50 yildan keyin, ya'ni 2075-yilda kelajak avlod o'chib o'qib ko'radidi. Ishonamanki, o'shanda O'zbekiston eng rivojlangan mamlakatlar qatorida turgan bo'ladi. Yoshlar esa o'z davridagi yutuqlar bugungi yaratilayotgan imkoniyatlar samarasi ekanligiga amin bo'ladi.

**Feruz HAKIMOV,
"Mard o'g'lon" mukofoti
sohibi.**

Elimiz ardog'idagi san'atkorlar, xonandalar, so'z ustalari, taniqli olimlar, iste'dodli ijodkorlardan iborat ma'naviyat targ'ibotchilari Samarqandga keldi.

Ular O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligi oldidan viloyatimiz bo'ylab o'tkazilayotgan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostidagi umummilliy birdamlik bayram festivalida ishtirok etyapti.

Ma'naviyat targ'ibotchilari dastlab Favqulodda vaziyatlar vazirligi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy tadbirda qatnashdi. Bu yerda viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari va ularning oila azolari bilan uchrashib, keyingi paytlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning samarasi haqida so'z yuritdi.

- Poytaxtdan kelgan targ'ibotchilar harbiy qism, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, aholi xonadonlarida bo'lib, xalqimizga bayramona kayfiyat bag'ishlayapti, - deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Xolbek Ko'bayev. - Ular 3 kun davomida viloyatimizda o'tkaziladigan

Ma'naviyat targ'ibotchilari Samarqandda



festivalida qatnashadi. Keyin biz festival doirasida tashkil etiladigan bu kabi tadbirlarni viloyatimizdagi taniqli shaxslar, olimlar, san'atkorlar, yozuvchi va shoirlar bilan birga davom ettiramiz.

Tadbirlar turli loyihalar asosida viloyatning

barcha shahar va tumanlarida o'tkazilayapti. Jumladan, uch avlod uchrashuvlari, ijodiy muloqotlar, mushoiralar tashkil etilmoqda. Shuningdek, milliy kinolar va konsert dasturlari namoyish qilinmoqda.

To'lqin SIDDIQOV.

Акк-садо



Яшил олам учун ҳамма масъул

«Zarafshon» gazetasi 2025 йил 6 июлдаги 78-сонида чоп этилган «Битта дарахт қуриса, масъуллар жавоб беради» сарлавҳали мақолани ўқиб, мутасадди раҳбарларнинг экилган дарахт кўчатлари парваришига нисбатан масъулиятсизликка йўл қўяётганлигидан ҳайрон бўлдим.

Йирик ва катта меҳнат жамоасига эга бўлган вилоят транспорт бoshqarmasi, «O'ztelekom» АК Самарқанд филиали, «Hududgaz Samarqand» газ таъминоти, ҳатто ўрмон хўжалиги бoshqarmasi каби ташкилотлар раҳбарларининг Президентимиз томонидан олға сурилган «Яшил макон» умуммиллий лойиҳасини ҳаётга татбиқ этиш масаласига бундай ёндашиши улар маънавиятининг заифлигидан, қалбда ватанпарварлик туйғуси сустигидан далолат, деб ҳисоблайман.

Юртимизни яшил маконга айлантириш ва бир фуқаронинг кундалик иши бўлмоғи лозим. Бу масъулиятни раҳбар шахслар ўн қарра, юз чандон ҳис қилишлари лозим. Ноқулай бўлса-да, бир мисол келтирмақчиман. Мен нафақага чиққач, туғилиб ўсган қишлоғимда – Паст Дарғом тумани, Гўзалкент ҳудудидagi «Олти қаҳрамон» маҳалласида каттагина боғ яратдим. Ховлимиз ёнидан ўтган катта ариқ

бўйига тол экиб, соя жой қилдик. Ҳозир бу ерга маҳалламиз болалари, ҳатто бошқа қишлоқлардан ҳам фуқаролар чўмилишга келадилар, табиий оқар сувда салқинлайдилар.

Турмуш ўртоғим Самарқанд шаҳридаги Ҳофиз Шерозий маҳалласи ҳудудида эрта баҳорда ёнғок, гилос ва ток кўчатларидан (ўзимиз этиштирган) 50 га яқинини эккан эди. Кўчатларнинг ҳаммаси кўкарди. Чунки рафиқам ҳар 2-3 кунда қишлоқдан ўтган ариқнинг лойқа сувидан 50-60 литр олиб келиб, кўчатларни сугориб туради.

Биз ҳаммамиз юртимизни боғу роғларга айлантиришда мана шундай масъулият билан ёндашишимиз керак. Чунки яшил олам учун ҳаммамиз масъулимиз.

**Йўлдош СУЙОНОВ,
меҳнат фахрийси.**

Har gal sovuq tushishi bilan aholidan "Gaz bosimi pasayib qoldi", "Gaz berilmayapti", "Gaz balloni o'z vaqtida kelmasi", "Ballondagi gaz bir haftaga bormay tugadi", "Ballon nosoz ekan", degan shikoyatlarni eshitamiz. Kunlar sovimasidan esa "Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik boshlandi" deb bong uriladi, mas'ullar odatdagidek va'dalar beradi.

"Gazdan muammo bo'lmaydi, deb va'da berolmaymiz"



Bu safar unday bo'lmadi. "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida gaz xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlarga bag'ishlangan matbuot anjumanida mas'ullar: "Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'ryapmiz, lekin gazdan muammo bo'lmaydi, deb oldindan va'da berolmaymiz" dedi.

Bu gap mas'ullarning avvalgi yillardagidan farqli ravishda "hammasi joyida bo'ladi", degan "navbatchi" gapi emas, balki mavjud vaziyat va muammolar haqida ochiq gapirayotganini anglatadi.

"Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali direktori o'rinbosari Jasur Avazovning ta'kidlashicha, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish doirasida 24,7 kilometr gaz tarmoqlarini mukammal ta'mirlash va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan bo'lib, hozirga qadar 11,7 kilometr tarmoqda ishlar bajarilgan. 50 dona gaz taqsimlash quzilmasi soz holatga keltirilib, 4923 dona quzilma taftish qilingan. Shu bilan birga, joriy yil viloyatda 16 ming 620 ta xonadonni uch bosiqchli tizimdan ikki

bosqichli tizimga o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, joriy yilning yanvar-iyul oylarida 16 ming 438 ta xonadon ikki bosqichli tizimga o'tkazilgan va 495 dona o'rta bosimli gaz taqsimlash quzilmasi demontaj qilingan.

- Tashkilotimizga qarashli 6 gaz to'ldirish stansiyasi va gaz to'ldirish punkti hamda shartnoma asosida xizmat ko'rsatadigan 13 ta xususiy gaz to'ldirish shoxobchasi iste'molchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda, - deydi J.Avazov. - Joriy yilning yetti oyida 769 mahalladagi 507 ming 919 nafar aholi va 429 ta ijtimoiy soha obyektlari uchun 50509,4 tonna suyultirilgan gaz fondi ajratildi. Iste'molchilarga 48597,7 tonna suyultirilgan gaz mahsuloti yetkazib berilib, ehtiyojmand oilalar 3291 dona maishiy gaz balloni bilan ta'minlandi.

Matbuot anjumanida qayd etilishicha, fuqarolarda suyultirilgan gaz balloni buyicha muammo va savollar bo'lsa yoki tizimda korrupsiya holatlariga duch kelsa, 1104 yoki 66-239-78-02 telefon raqamlariga murojaat qilishlari mumkin.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Maxmadiyarov Djurakulga (2011-yil 7-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Karimov Erkin Mirzayevichga (2025-yil 31-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Ravshanov Faxridin Rashidovichga (2024-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Gusainov Rustam Axmatovichga (2024-yil 25-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Ganiyeva Mukaramga (2006-yil 2-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Djaililov Murodillo Halilovichga (2021-yil 28-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

"MATBUOT UYUSHMASI" MIJOZLARI DIQQATIGA!

"MATBUOT UYUSHMASI" MCHJ orqali obuna uyushtirilgan davriy nashrlar o'z vaqtida obunachilarga yetkazib berilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilgan.

Agar bu borada e'tirozlar, taklif va mulohazalaringiz bo'lsa, quyidagi telefon raqamlariga murojaat etishingizni so'raymiz:

+99866-234-94-37, +99866-234-93-96, +99866-234-94-32, +99866-234-22-53.

"MATBUOT UYUSHMASI" MCHJ MA'MURIYATI.



Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Isayev Axmadga (1998-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

